

TOG' RAYXONI O'SIMLIGINING SAMARQAND TABIIY FITOSENOSIDA TUTGAN O'RNI

*Ashurova Sh.
Mamadmurodova G.
Sharifmurodov K.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Labguldoshlarlar oilasiga mansub bo'lgan dorivor, ko'p yillik o'simlik tog' rayxoning tur va turkumi, qisqacha botanik tavsifi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi, ahamiyati hamda Urgut tabiiy fitosenozida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tog' rayxon, vegetatsiya, gullash, mevalash, dorivor, fitosenoz, dominant, to'pgul, saponin, allantolakton, Drude.

Kirish. Tog' rayhonini tog' qora rayhoni, o'rmon yalpizi, sebinak ham deyishadi. Tog' rayhoni tog' yonbag'irlari, o'tloqlar va o'rmonlarda o'sadi. Xushbo'y, manzarali gul sifatida ham ekiladi. Uning tarkibida 2.2% efir moylari, geranil, askorbin kislotalar, timol, karvakral, atsetat kislotalari, karotin, oshlovchi moddalar, 6-8% tanin, "C" darmon-dorisi, urug'i tarkibida 30% gacha moy bo'ladi. Undagi efirlarga terpenoidlar, flavonoidlar va uning 70% ini tashkil qiladigan evgenollar kiradi. Bundan tashqari, makroelementlardan Mg, Na, Ca, mikroelementlardan Zn, F, Se, Cu larning miqdori yuqoriroq. [3,4,5,6,8].



1-rasm. Tog' rayxon-*origanum vulgare* L.

Uning hidi xushbo'y bo'lish bilan birgalikda shifobaxsh hamdir. Tog' rayonini hidining xushbo'yligiga efir moylari sabab bo'ladi. Uni hidlaganda efir moylarining tinchlantiruvchi xususiyati tufayli bosh og'rig'i qoladi, yana o'pka, yurak, yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklarini davolashda qo'shimcha ravishda foydalaniladi. Yana ishtahani ham ochadi. Uni ayollarimiz chakkasiga, sochiga taqib olishi bejiz emas, chunki mikroob, viruslar hamda hasharotlarni yaqinlashtirmaydi. Tabobatda uning shoxchalari, yaprog'i, urug'i ishlatiladi. Sebinak moyi tish og'rig'iga davo hisoblanadi. U quyidagicha tayyorlanadi: bir hovuch maydalangan tog' rayhoni o'tiga 0.5 litr zaytun moyi yoki pista moyi qo'shib aralashtirilib, 8 soat damlab qo'yiladi. So'ngra ezib dokadan o'tkaziladi. Hosil bo'lgan ekstrakt paxta pilikchaga shimdirilb, tish kovagiga qo'yilganda, u og'riqqa barham beradi.

Metodlar. O'simlikning fenologiyasi, o'sishi va rivojlanishi I.N.Beydeman va boshqalar metodikasi bo'yicha o'rganildi. Sutkalik va mavsumiy gullash va urug' biologiyasini o'rganishda Ponomoryov metodikasidan foydalanildi, o'simlikning fitosenozda tutgan o'rni Drudening 6 ballik shkalasi yordamida aniqlandi.

Natijalar. Samarqand viloyatida *tog' rayxon* o'simligining tabiiy maydonchasidagi biologik xususiyatlarini o'rgandik.

Ushbu tabiiy hududlardagi fitotsenozlardagi turlarning uchrash darajasini Drude shkalasidan foydalanib aniqladik. Kuzatishdan olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

T/r	O'simlik nomi	Vegetatsiyasi	5 balli shkalada tutgan o'rni
1	<i>Origamum vulgare</i>	Gullash	Cop3
2	<i>Alhagi pseudalhagi</i>	Mevalash	Sol
3	<i>Erumopyrum repens</i>	Gullash	Sol
4	<i>Rosa fedtschenkoana</i>	Gullash	Un
5	<i>Ferula kuhistanica</i>	Gullash	Un
6	<i>Aluopus litorais</i>	Vegetatsiya	Sol
7	<i>Rumex confertus</i>	Gullash	Sol
8	<i>Hordeum vulgare</i>	Gullash	Cop1
9	<i>Tribulus terrestris</i>	Mevalash	Sol
10	<i>Inula grandis</i>	Gullash	Sol
11	<i>Bromus tektorum</i>	Vegetatsiya	Sol
12	<i>Amygdalus spinossisima</i>	Mevalash	Un
13	<i>Prangos pabularia</i>	Gullash	Sol

14	<i>Carex physoides</i>	Mevalash	Sol
15	<i>Elytrigia trixophilla</i>	Mevalash	Sol
16	<i>Phlomis olgae</i>	Gullash	Sol
17.	<i>Cynodon dactylon</i>	Mevalash	Sol
18.	<i>Poa bulbosa</i>	Mevalash	Sol
19.	<i>Onosma dixroantum</i>	Gullash	Un

Samarqand viloyati tabiiy fitosenozida 25m² maydonda 19 tur o'simlik uchrab shundan *Origamum vulgare* va *Hordeum vulgare* Copiosus¹, *Rosa fedtschenkoana*, *Amygdalus spinossisima*, *Ferula kuhistanica*, *Onosma dixroantum*lar esa Unikum qolgan o'simliklar esa Solitare holatida ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Samarqand viloyati tabiiy fitosenozida 25m² maydonda 19 tur o'simlikdan tog' rayxon, bir yillik arpa, fedchenko na'matagi, achhchiq bodom va kuhiston kovragidan iborat jamoa ustunlilik qilar ekan. Ushbu o'simlik ko'p tomonlama foydali bo'lganligini inobatga olib, tabiiy o'sish hududlaridan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати:

1. B.S.Islamov, M.A.Hasanov "Botanika" Samarqand-2020. 438-b.
2. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 8-10.
3. Nasov A.M. Dorivor o'simliklar .M:EKSMO-Press, 2000-y, 350-b.
4. Tursunboyeva G.S., Komilova Sh.F "Botanika asoslari" Toshkent-2009. 82-bet.
5. Xoliqulov S., Prator O'., Fayziev A. "O'simliklar aniqlagichi" Toshkent "O'qituvchi" 2005 90-bet.
6. Xolmatov H.X., Ahmedov O'.A., Musayeva N.A. "Farmakognoziya va botanika asoslari". Toshkent-2017. 14-bet.
7. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
8. Хожиматов Қ., Оллоёров М. Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари ва уларни муҳофаза этиш. – Т.: Фан нашриёти, 1988.
9. Хо'jamov Sh, A. (2024, avgust). TABIIY BIOSENOZDA O'SUVCHI DARAXTCHIL O'SIMLIKLAR NEMATODAFUNASINING O'RGANILISHI. FANlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqot konferensiyasida (22-jild, 2-son, 11-13-betlar).